

MA'NAVIY MAKON TUSHUNCHASINING ASOSIY PRINSIP VA TAMOYILLARI

Mamatqulov E.S

(TerDu tayanch doktorant)

Annotatsiya. Bu maqolada Yangi O'zbekiston strategiyasida ilgari surilgan Yangi ma'naviy makon tushunchasining asosiy tamoyillari tahlil qilingan. Shuningdek, yangi ma'naviy makonni yaeratish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olingan.

Tayanch so'zlar: Yangi O'zbekiston, Uchinchi renessans, yangi ma'naviy makon, falsafa, tamoyil.

Аннотация. В данной статье анализируются основные принципы концепции Нового Духовного Пространства, выдвинутые в стратегии Нового Узбекистана. Также определены приоритетные задачи, которые предстоит реализовать в создании нового духовного пространства.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Третье Возрождение, новое духовное пространство, философия, принцип.

Annotation. This article analyzes the basic principles of the concept of the New Spiritual Space, put forward in the strategy of New Uzbekistan. Priority tasks to be implemented in the creation of a new spiritual space are also identified.

Key words: New Uzbekistan, Third Renaissance, new spiritual space, philosophy, principle.

Hozirgi davrda har bir xalq va davlat rivojlanishining asosiy belgisi ma'naviy taraqqiyotning qay darajada taraqqiy etgani bilan ifodalanadi. Zero, ma'naviyat ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlari uchun muhim bo'lib kelgan tushuncha bo'lib, unda jamiyatning ruhiy holati aks etadi. Ma'naviy makon eng avvalo ajdodlar ma'naviy merosini o'rganish, tadqiq qilish va ushbu boy ma'naviy merosdan zaruriy xulosalar chiqargan holda, bugungi hayotni olib borish bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari avj olgan zamonaviy dunyoda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy makon sofligini ta'minlash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu sababli so'nggi yillarda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy soha faoliyatiga e'tibor kuchayib bormoqda, sohaga oid bir qancha qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Ayniqsa, 2021-yil 26-martda qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori ushbu sohani yanada rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmon qabul qilingan bo'lib, ushbu farmon orqali yangi ma'naviy makonni tashkil etishning naqadar zaruriy masala ekanligi ko'rsatib berildi. Muhratam Prezidentimizning ushbu farmoni mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida "yangi ma'naviy makon" tushunchasining mohiyati, uning jamiyat va xalq farovonligidagi ahamiyati tahlil qilingan. Ushbu kitobda ta'kidlanganidek, yangi ma'naviy makon ta'lim-tarbiya, ota-bobolardan saqlanib kelayotgan boy ma'naviy meros, milliy qadriyatlar tizimi, ma'rifat va e'tiqod asosida barpo etilishi lozim. Bu borada muhtaram yurtboshimizning quyidagi so'zlari diqqatga sazovordir: "Yangi ma'naviy makon biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir" [1.273]. Demak, yangi ma'naviy makonni yaratish taqozosi, eng avvalo, jamiyatning ma'naviy qiyofasini yuksaltirish orqali amalga oshiriladi. Ma'naviy makon taraqqiy etgan jamiyatda esa "ommaviy madaniyat" unsurlari, din niqobi ostidagi ekstremizm, terrorizm, mutaassiblik, fanatizm, fundamentalizm, ksenofobiya kabi illatlar, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi zararli axborotlarning tarqalishi uchun imkon qoldirilmaydi [6.58].

Shu qayd etish lozimki, ma'naviy makon jamiyat bilan birga o'zgarib, doimiy yangilanib turishi va "jihozlanishi" kerak bo'lgan barqaror, o'ziga xos ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uning asl kelib chiqishini bilish insonda ma'naviy va axloqiy asoslarning paydo bo'lish jarayonlarini belgilaydigan tizimni tashkil etuvchi omillarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, jamiyat hayotida mavjud va yangi paydo bo'lgan muammolarni hal qilish yo'llarini aniqlashga ko'maklashadi. Zamonaviy ilm-fan, jumladan, falsafa, bugungi kunga qadar jamiyat hayotining ma'naviy sohasi muammolarini o'rganish bo'yicha boy nazariy asoslar to'plagan bo'lsa-da, ma'naviy makonni anglashning ko'plab uslubiy masalalari hamon zaifligicha qolayotgani ham ayni haqiqatdir. Ma'naviy makon integrativ tushuncha sifatida ijtimoiy falsafa doirasida to'g'ri ishlab chiqilmagan. Ushbu falsafiy yo'nalishda ma'naviy makon tizimli va yaxlit shaklda tahlil qilingan asarlar hali ham yetarli darajada taqdim etilmagan. Bularning barchasi bugungi kunda ma'naviy makonning nazariy va uslubiy asoslarini kengaytirish, uning xavfsizligini ta'minlash va yaxlitligini saqlash uchun har qachongidan ham shoshilinch chora-tadbirlar, jumladan, ijtimoiy-falsafiy bilimlar zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, ma'naviy makon sohasidagi jarayonlarni aniqlash va baholashdan bu jarayonlarni tartibga solishga, jamiyatning axloqiy, ma'naviy va madaniy tanazzuliga qarshi yanada samaraliroq kurashishga qodir tizimni shakllantirishga o'tish vaqti keldi. Buning uchun esa ma'naviy makon

tushunchasini falsafiy nuqtai nazardan chuqur tadqiq va tahlil etgan holda, ishonchli xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi ma'naviy makonning jamiyat va davlat rivojida ahamiyati masalasi bir qator xorijiy tadqiqotchi-olimlar tomonidan muhokama qilingan bo'lsa-da, ushbu mavzu mamlakatimizda falsafiy jihatdan yetarli darajada tadqiq qilinmagan mavzulardan biri hisoblanadi. Ma'naviy makon tushunchasini to'g'ri nuqtai nazardan tahlil qila olish uchun birinchi galda "makon" tushunchasi, uning ontologik jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Makon – bu eng avvalo insonni qurshagan tevarak olamga nisbatan ishlatiluvchi keng ma'noli tushuncha bo'lib, inson moddiy olamdagi ruhiy va jismoniy xatti-harakatlarini aynan shu makonda amalga oshiradi [3.57].

Yangi ma'naviy makon tushunchasi jamiyatning barcha sohalari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, jamiyat a'zolarini taraqqiyotga yetaklaydigan falsafiy tushunchadir. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyoti, eng avvalo, undagi ma'naviy makonning qay darajada yuksak ekanligi bilan belgilanadi. Ma'naviy makon jamiyatning eng muhim tarkibiy qismi sifatida jamiyatning ruhiy holatini belgilab beradi. Bu makonning asosiy tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq va bo'linmaydi, unda ma'naviy hayot, madaniyat, urf-odatlar, axloqiy tushunchalar (shon-sharaf, vijdon, adolat, mehr-oqibat, haqiqat, go'zallik, muhabbat) o'zaro mujassam holatda taraqqiy etadi.

Ma'naviy makonning tarkibiy qismlariga quyidagi unsurlarni kiritish mumkin: Axloq; Qadriyatlar; Urf-odatlar; An'analar; Mentalitet; Din; Madaniyat; Falsafa.

Shu nuqtai nazardan ma'naviy makon – bu murakkab tarkibiy qismdir. Ma'naviyat - bu shaxsiyatning mohiyatidir, uning makonda bo'lganligi va turmush tarzi bo'yicha aks ettirish usulini anglatadi. Shu bilan birga, ma'naviy qadriyatlar jamiyatning faoliyatini va rivojlanish dinamikasini aks ettiradi. Ma'naviy qadriyatlar insonning ma'naviy ehtiyojlari, ma'naviy makonni to'ldiradigan shaxslar o'rtasidagi ruhiy munosabatlar, ma'naviy munosabatlar bilan belgilanadi. Ma'naviy makonning yuksak darajada ekanligi jamiyatda ma'naviyati yuksak insonlarning soniga chambarchas bog'liqdir. Ma'naviyati yuksak inson yuksak madaniyat, muruvvat va olijanoblik sifatleri bilan ajralib turuvchi individdir. Ma'naviy boy shaxs har doim hozirgi paytda hal qilinishi mumkin bo'lgan murakkab vazifalarni belgilaydi. Shuning uchun ma'naviy boy inson - bu intellektual, axloqiy jihatdan va estetik jihatdan boydir. Uning ruhiy ehtiyojlari uni hayotning ma'nosi, abadiy qadriyatlar haqida fikr yuritishga undaydi [2.11].

Ma'naviy makonning eng muhim tarkibiy qismi jamiyatning ruhiy hayotidir. Ma'naviy hayot bu ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqarish va tarqatish, insonning ruhiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ijtimoiy hayotning sohasidir. Ma'naviy

makon inson va jamiyatning ma'naviy va axloqiy hayoti sohasiga bog'liq. Zero, ma'naviy soha jamiyat va inson hayotining eng yuksak sohasi bo'lib, bu yerda ruh, ma'naviyat tug'iladi, ma'naviy ehtiyojlar paydo bo'ladi. Shu jihatdan aytish mumkinki, ushbu masala nafaqat hozirgi, balki o'tmish va kelajakda ham mavjud bo'lgan barcha insoniyatga tegishli masaladir.

Insoniyat o'zidan avval yashagan ajdodlarining ilmiy-ma'naviy yutuqlarini, boy tajribalarini to'playdi va bu orqali o'zining moddiy va ma'naviy hayot darajasini yuksaltirishga intiladi. Bu holatning o'ziyoq ma'naviy sohadagi bir davrda erishilgan yutuqlar bir necha avlod hayotida zarurligini isbotlaydi. Ma'naviy makonda barcha umumiy qadriyatlar ijtimoiy jihatdan farqli ravishda ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa yo'nalishlarning bilvosita ta'siri ostida o'z yo'lini saqlab qolish imkoniyatiga ega. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, ma'naviy makon davlat hududiy chegaralari bilan cheklanmaydi. Bu mamlakatimiz madaniyati ustuvor ahamiyat kasb etadigan makon, tarixiy, madaniy, diniy va milliy-ma'naviy qadriyatlar chuqur ildiz otgan barcha hududlarda namoyon bo'ladi [4.122].

Yangi ma'naviy makon tushunchasi inson hayotining o'ziga xos genotipi, inson hayotini tashkil etish va rivojlantirishning o'ziga xos usuli sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarini tashkil etadigan va rivojlantiradigan, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy normalar va texnologiyalar tizimini qamrab oluvchi makondir. Bu avlodlarning uzluksizligini ta'minlaydigan ma'naviy-axloqiy madaniyatning eng yuqori cho'qqisi, an'analar va innovatsiyalarning muloqoti, jamiyatni kelajakka intilishga chorlaydigan makon hisoblanadi. Bu maqsadlar va qiziqishlar amalga oshiriladigan, g'oyalar va qarashlar, an'analar, e'tiqod va axloqiy me'yorlar chuqur ildiz otgan joydir. Ushbu konsepsiya doirasida ma'naviy makon konsepsiyasi - bu odamning ijodiy faoliyatining paydo bo'lishiga imkon beruvchi va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar insonga tegishli bo'lishiga imkon beradigan hududning o'ziga xos turidir [7.336].

Xulosa o'rnida aytish lozimki, ma'naviy makon ma'naviyatning o'zi mavjud bo'lgan barcha fazilatlarga ega, bu insonning ma'naviy va axloqiy faoliyatini tavsiflaydi. Ma'naviy makonda insonning ijodiy faoliyati ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish va yangilash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ma'naviy makon - shaxs va jamiyatning ma'naviy va axloqiy hayoti natijasida kengayib borib, nafaqat ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni anglatadi, shuningdek ularning shakllanishi va rivojlanishining sharti sifatida faoliyat ko'rsatadigan subyektlarning o'zaro ta'sirini tartibga soluvchi ma'naviy jarayonlarni tashkil etadi. Har bir davrda ma'naviy makonni yuksaltirish jamiyatning ma'naviy-axloqiy rivojlanishining yo'nalishini belgilaydigan maxsus konsepsiyalar vositasida amalga oshiriladi. Ammo zamonaviy ma'naviy makonni shakllantirish jarayonini tushunish uchun

jamiyatning ma'naviy makoni va ruhiy sohasi haqidagi g'oyalarga murojaat qilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 464.
2. Бурняшева Л.А., Газгиреева Л.Х. Духовный кризис ценностных оснований: социально-философский дискурс проблемы // Перспективы науки. - Тамбов. -№ 2 (17). - 2011. - С. 48.
3. Гуссерль Э. Логические исследования. Т. 2. - М.: ДИК, 2001. - С. 97.
4. Ильин И.А. Путь духовного обновления. Работы разных лет. - СПб.: «Библиополис». 2008. - С. 137.
5. Лейбниц Г.В. Труды по философии науки. - М.: Либроком, 2010. - С. 126.
6. Нартов Н. Геополитика. - М.: ЮНИТИ, 2008. - С. 59.
7. Философский энциклопедический словарь. / Ред. сост. Е.Ф. Губский, Г.В. Кораблева, В.А. Лутченко. - М.: ИНФРА-М, 2007. - С. 336.
8. Хайдеггер М. Бытие и время / Пер. с нем. В.В. Библихина - М.: Ad Marginem, 1997. Переизд.: - СПб.: Наука, 2002; - М.: Академический проект, 2010. -С. 87.
9. Хайдеггер М. Бытие и время / Пер. с нем. В.В. Библихина - М.: Ad Marginem, 1997. Переизд.: - СПб.: Наука, 2002; - М.: Академический проект, 2010. -С. 95.
10. Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. - М., 1993. - С. 346.
11. Юм Д. Трактат о человеческой природе // Сочинения. - Т 1. - М., 1996. -С. 130-131.